

Sharqda Renessans Davri Va Musiqa San'ati

Muhammadjonova Mohinur

Farg'ona davlat universiteti, –San'atshunoslik fakulteti, Musiqa ta'limi yo'nalishi, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sharqdagi renessans davrlari va o'sha davrdagi musiqiy-madaniy hayot haqida so'z boradi. O'rta Osiyoda Arablar istilosi davrida mavjud cholg'ular, birinchi renessans davrida yashab ijod qilgan qomusiy olimlarning asarlari va ularning musiqiy qarashlari, Uchinchi renessans po'ydevorini qurish haqida fikrlar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: Musiqa, renessans, soz, meros, maqom, miloddan avvalgi, raga, dastgox, cholg'u, istilo, sivilizatsiya, falsafa.

–Renessans (uyg'onish) davri Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlaridagi shartli nomlanish bo'lib, IX-XV asrlarni o'z ichiga oladi. Ma'naviyat va ma'rifatning g'oyat gullab-yashnashi bu davr uchun xarakterli bo'lgan. Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajoyib shoirlar, buyuk davlat arboblari yetishib chiqqan. Shuning uchun ham uyg'onish davri madaniyati, ma'naviyati va ma'rifati mohiyat-e'tibori bilan dunyoviy, gumanistik dunyoqarash, antik davr madaniy merosiga murojaat qilish, bamisoli uning qayta uyg'onishini anglatadi. Uyg'onish davri namoyondalarining qarashlari insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasiga, aql-idrokiga ishonib qarashi bilan ajralib turadi.

–Renessans so'zi –Uyg'onish, –Qaytadan tiklash ma'nolarini bildiradi.

O'rta Osiyoda dastlabki O'rta asr elementlari va quldorlik tuzumi inqirozi VIII-IX asrlarda boshlandi. Bu esa o'z navbatida sharqda ilk renessansning vujudga kelishi uchun imkoniyat yaratdi. Bu davrda yurtimizdan juda ko'plab dunyo tan olgan zotlar, allomalar, olimu-fuzalolar yetishib chiqdi va ular musiqa san'atining rivojida ham o'z hissalarini qo'shdilar.

Buyuk sharq allomalaridan: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Pahlavon Mahmud, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Najmiddin Kavkabi, Darvish Ali Changiy va boshqa ulug' bobokalonlarimiz o'zlarining risolalarida ijrochilik san'ati, musiqa ilmi va tarixi, cholg'u sozlarining tuzilishi, ijroviy uslublari, san'atkorlik qonun-qoidalariga oid ma'lumotlarni bayon etib ketganlar. Mashhur didaktik asar –Qobusnomall da ham hofizlik va san'atkorlikning qoidalariga bag'ishlangan alohida bob o'rin olgan. O'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, sunrayga, qonunga, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, minatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mug'om, Dastgox, Navba, Raga, Kyu kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan-avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan.

Musiqiy ijrochilikning yana bir yo'nalishi dostonchilik san'ati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida juda rivojlangan bo'lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi. Tarixiy manbalarga murojaat etilsa musiqiy madaniyat uzoq tarix bilan bog'langanligi namoyon bo'ladi. Bunga qadimshunoslar tomonidan topilgan ashyoviy dalillar tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar suratlari minatyura ko'rinishidagi shoxlar saroylaridagi bazmlarda sozandalar tasviri, musiqiy ijrochilik sadolari asrlar osha yetib kelganligidan dalolat beradi. IX-XII asrlarda

O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri bo'lganligi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Lekin

X-XII asrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari va ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ustoz musiqashunos olimlarning yozma manbalariga asoslanib ba'zilar ustida to'xtalib o'tiladi.

VI-VII asrda yashab ijod etgan O'rta Osiyolik Faxlobod Borbad haqida ma'lumotlarga qaraganda musiqashunoslik va hofizlik borasida tengi yo'q san'atkor bo'lganligi e'tirof etiladi. Afsonaviy ijrochilik mahoratiga ega bo'lganligi haqida yozgan ustoz musiqashunos olim Ar-Roziy Borbadning buyuk ijrochilik mahorati bilan birgalikda musiqiy sozlarning ham yaratuvchisi bo'lganligini aytib o'tadi. Borbad yaratgan musiqa asbobi X-XII asrlarda Xuroson va Turonda keng tarqalganligini va uning 4 torli bo'lganligini yozadi. Qadimiy qo'lyozmalarda X-XII asrlarda ijod qilgan Abu Bakr Rubobiy, Bunasr, Buamir va changchi Lukoriy va boshqa sozanda va hofizlarning nomlari eslab o'tiladi. IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo'lganligi, ayniqsa -Bo'yi jo'yi muliyonl she'rini ushshoq kuyida aytilgani qadimgi qo'lyozmalarda ko'rsatilgan.¹

Adabiyotshunos olim N. Mallayev qadimiy qo'lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, qo'biz, tanburok, zir, nay, chag'ona, shaypur, sunray, karnay, arg'unan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chalinadigan cholg'u asboblari keng tarqalganini va o'n ikki maqom taraqqiy topib takkomillashganini ko'rsatib o'tgan. O'sha davrning buyuk olimi Maxmud Qoshg'ariyning -Devoni lug'otiy turkl asarida qadimiy turkiy xalqlarning xalq og'zaki jodi va qo'shiqlari, bayrami va marosimlaridagi mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari haqida namunalar berilgan bo'lib, o'sha zamonda qo'shiqchilik janri rivoj topganini ko'rsatadi.

X-XII asr musiqa va ashula san'atiga doir bayon etilgan noyob ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning -Qutadg'u bilig' asarida ham uchraydi. X asrning buyuk qomusiy olimi, musiqashunoslik fanining ulug' kashfiyotchisi Abu Nasr al-Forobiy bo'lib, uning musiqa sohasida yaratgan asarlari asosida Yevropa olimlari ham qator asarlar yaratganlar. Farobiy o'z faoliyatida musiqa ilmini tadqiq etish bilan birga fiziologik asoslarini ishlash ustida ijod qildi va -Qonunl, -G'ijjakl kabi yangi musiqiy sozlarni kashf etdi. Uning musiqa sohasidagi nazariy asarlaridan -Kitob-ul musiqa al-kabirll (-Katta musiqa kitobll), -Kitob fi ixso-al ibkoll (-kuylar tasnifi haqida kitobll), -Kitob fin naqra muzofa ilal ibqoll (-Ritmga qo'shimcha qilinadigan siljishlar haqida kitobll) kitoblari ma'lum. Akademik Muzaffar Xayrullaevning -Farobiyll asarida uning musiqa ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar beriladi. Yana bir ulug' alloma Abu Ali Ibn Sino ham musiqa nazariyasi bilan shug'ullangan bo'lib, 1931-yilda Maxmud al-Xavning Berlinda nashr etilgan Ibn Sinoning musiqa ijodiga bag'ishlangan kitobida Abu Ali Ibn Sinoni katta musiqa nazariyotchisi va uning musiqa asboblari ham kashf etgani to'grisida ma'lumot beradi. Yana shu kitobda ulug' olimning musiqa haqidagi -Kitob un najotl asarining arabchadan nemischaga tarjimai berilgan. Abu Ali Ibn Sino meditsina, falsafa, musiqa sohasida -Al-qonun fit-tibll (-Tib qonunll), -Kitob ul shifoll (-Shifo kitobll), -Donishnomall, -Risola fial musiqiy sayr mofi al-shifoll (-Musiqqa to'g'risidal, -Shifoll da berilgandan boshqa risolal) kabi qator asarlarni yozdi. Ibn Sinoning musiqaga doir mulohazalari -Kitob ush shifoll asariga alohida bir qism qilib kiritilgan. Yuqoridagi asarlarda Ibn Sino musiqaning estetik ahamiyati va ta'sir kuchiga e'tibor berib, ayrim jismoniy va ruhiy kasalliklarni musiqa vositasi bilan shifolash usullarini o'z amaliyotida joriy qiladi. Ibn Sino Buxoroda yashagan davrida Somoniylarning boy kutubxonasidan foydalanadi va Yunon kitoblarini tinmay qiroat qiladi. 999-yilda Qoraxoniylar tomonidan Somoniylar davlati qulatilgach, Urganchga kelib, Xorazm olimlari qatoridan joy oladi. Keyinchalik Maxmud G'aznaviy tazyiqi ostida ko'p shaharlarni kezib, 1037-yilda Hamadonda vafot etadi.

¹ A.Jabborov, S.Begmatova, M.Azamova. O'zbek musiqasi tarixi. T. 2018-y.

X asrda yashab ijod qilgan Muhammad Ibn al-Xorazmiy musiqa haqida asar yozib, o'zining -Mafotix ul ulumll deb atalgan qomusiy asariga asosiy boblardan qilib qo'shgan. Xorazmliklar qadimdan musiqa va raqs hamda qiziqchilik shaydosi bo'lganliklariga Alisher Navoiy ham shoxidlik beradi. U o'zining -Sabb'ai sayyorll dostonida bir musiqashunosni Xorazmdan keltirib gapga solganligini quyidagi misralarda ifodalaydi.

Chun duo qildi, dedi farzona,
Ki dey o'z ko'rgonimdan afsona,
Menki tushmish buyon chuzor menga,
Mulk Xorazm erur diyor menga,
San'atimonda soz cholmoq ishi.
Qilmoyin men kabi ishimni kishi,
-Ilm advorll fan musiqiy
Mendin ul, ilm bo'ldi taxqiqiy.

Shundan korinadiki, qadimgi zamonlardan beri musiqiy san'at dunyosida

Xorazm yuksak o'rinda bo'lgan. XI asrda dunyoga kelgan -Qobusnomall asarining 36-bobi ham musiqa san'atiga bag'ishlangan bo'lib, unda kitob muallifi Kaykovusning cholg'uchi va hofizlarga qanday kuy tanlash va qachon, qayerda ijro etish hamda san'atkor odobi va madaniyatlari tog'risidagi nasihatlarini, o'sha davrda musiqiy san'atning taraqqiyoti yuksak darajada ko'tarilganligidan dalolat beradi. XII asrdan boshlab Al Forobiy, Abu Ali Ibn Sino musiqa nazaryalari zamirida mahalliy tillarda musiqa fani haqida qator asarlar maydonga kela boshladi. Xorazmlik olim Ar-Roziy o'zining XII asrda yozgan -Jome'ul-ulumll qomusining bir bo'limini musiqa faniga bag'ishlagan. XIII asrda Muhammad Ibn Ma'sud ash-Sheroziy -Dar ilmiy musiqiyll, Sayfutdin Abdul Mo'min al Urmaviyning -Risolatun Sharafiyall kabi asarlari ham musiqaga bag'ishlangan. Musiqa ilmi bilan o'rta asr olimi Muhammad al Amuliy ham shug'ullangan zamonamizning atoqli musiqashunos olimi san'atshunoslik doktori Isxoq Rajabov XIII asrda maydonga kelgan al Urmaviyning -Risolatun Sharfiyall, Ash-Sheroziyning -Dar ilmiy musiqiyll asarlariga ilova qilingan va ud sozi uchun yozilgan qadimiy musiqa notalarini shartli belgilar bilan hozirgi zamon notasiga o'girishda tajribalar o'tkazdi. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan bu tadqiqotda XIII asrda notaga olingan qadimiy musiqa tuzilishini hozirgi zamon o'zbek kuylariga juda yaqinligi aniqlangan. Shuni hisobga olgan holda hozirgi kunda talabalarga milliy musiqa me'rosimizni yaratilish tarixi, uning mazmun va mohiyatini o'rgatish ularning musiqiy nazariy bilimlarini oshirishda va nota savodxonligini yuksaltirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyev tantanali tabrik nutqida taraqqiyotning maqsadi Uchinchi Renessans bo'lishi lozimligini ta'kidladilar. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g'oya o'zining ulug'vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston milliy g'oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi. Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat-barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog'i lozim. Birinchi va ikkinchi renessanslarning tarixiy sharoiti va davr talablari, imkoniyatlarini haqqoniy baholab, Yangi Renessansning tarixiy sharoitlari va talablari mutlaqo o'zgacha ekanini asoslash, dalillash maqsadga muvofiq. Uchinchi Renessans to'rtinchi sanoat inqilobi bilan muvoziy, bir vaqtda kechadi. Shu sababdan u, avvalo, texnologik inqilobni, yuksak rivojlangan raqamli smart (aqli) iqtisodiyotni taqozo qiladi. O'z navbatida, raqamli, smart iqtisodiyotga o'tish uchun ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish, avtomatlashtirish, robotlashtirish talab

etiladi. Mazkur jarayon O‘zbekistonda qanday bosqichlarda amalga oshirilishi, uning moddiy-moliyaviy, insoniy, ilmiy va ilmiy-texnologik ta‘minoti bo‘yicha istiqbolli aniq kompleks dasturlar yangi Renessans g‘oyasi bilan mafkuraviy jihatdan bog‘lanishi shart. Ilmiy, ilmiy-texnologik ta‘minot taqozosidan kelib chiqib, ta‘lim-tarbiya sohasining barcha bo‘g‘inlari uzluksiz isloh etib borilishi kerak.

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o‘tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo‘ydi. Haqiqatan tarixan olganda ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX — XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi — XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda Farg‘oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar — Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.²

Ikkinchi Renessansda — Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me‘morlar, bastakorlar, musavvirilar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar. Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, taraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur.

Mustaqillikdan keyin biz shaxsga nisbatan -komil insonll, yosh avlodga nisbatan -barkamol avlodl atamalarini qo‘llay boshladik. Gap atamada emas. Qanday sifatni qo‘llamaylik, kelajak insonini tarbiyalashda biz, avvalo, jamiyat taraqqiyoti tendensiyalarini va ayni paytda milliy ma‘naviyatimiz xususiyatlarini hisobga olmog‘imiz lozim. Binobarin, sun‘iy intellekt va yuksak texnologiyalarga tayanadigan -to‘rtinchi sanoat inqilobill insonga qo‘yadigan talablarini oldindan modellashtirishimiz va ta‘lim-tarbiya tizimini ularga moslashtirish kerak.

Xuddi shunday milliy identligimizni saqlab qolish uchun ona tilimizni, tariximizni, adabiyotimiz va san‘atimizni yetarlicha o‘rgatishning optimal yo‘llarini topmog‘imiz lozim. Urf-odatlarimiz ham takomillashtirilishi va zamonaviylashtirilishi juda zarur. Ijtimoiy ongda, odamlarning xatti-harakatlarida burilish yuz berishi, yangi ideallar va qadriyatlar qaror topmog‘i darkor.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g‘oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma‘naviy kamoloti bilan bevosita bog‘lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu havasligicha qolib ketadi.

Prezidentimizning tabrik nutqida asosiy yo‘nalishlar va vazifalar belgilab berildi. Endi hammamiz, butun jamiyatimiz, ularni amalga oshirishga kirishmog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev 1 oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
2. A.Erkayev. Uchinchi Renessans – milliy g‘oya sifatida (maqola), Toshkent. 2020-y.
3. I.Abdurahmonov. Birinchi va ikkinchi renessans – buyuk daholar davri. (maqola) Toshkent: 2020-y.
4. I. Karimov. Yuksak ma‘naviyat yengimas kuch. Toshkent. Ma‘naviyat 2008-y.
5. O. Ibrohimov. Maqom asoslari. Toshkent. Turon iqbol. 2018-y.
6. A. Jabborov. S. Begmatova, M. Azamova. O‘zbek musiqasi tarixi. Toshkent 2018-y.
7. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). XX-ASRNING -HAMNAFAS|| XOFIZLARI. " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION, 10(1).

² I.Abdurahmonov. birinchi va ikkinchi renessans buyuk daholar davri. T. 2020-y

8. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.
9. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG _U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
10. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O _ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO _RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).
11. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.
12. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O _ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.
13. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O _RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.
14. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
15. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
16. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(C4), 23-28.
17. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
18. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
19. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.
20. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.
21. Achildieva, M., Tursunbaev, B., Ikromova, F., Azimjonov, O., & Khaydarova, O. (2021). ABOUT MAHMUDJON TOJIBOEV'S PEDAGOGICAL ACTIVITY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(05), 240-244.
22. Adiljanovna, A. M., Nurullaevna, N. M., Abdumalikovna, Y. D., Sharobidinovich, M. J., Abdujalil Abduvalio'g'li, A., & Behzod Asqaralio'g'li, T. (2021). Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heritage. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 9092-9100.
23. Karimova, M., Achildiyeva, M., Ikromova, F., & Xaydarova, O. (2021). Use From Pedagogical Technologies in Music Lessons. *European Scholar Journal*, 2(4), 460-463.
24. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).

25. Azimjon, K. (2023). Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(7), 162-166.
26. Khojimamatov, A., & Atkiyoyeva, R. (2023). THE CREATIVE HERITAGE OF" VADI BULBULI" TAVAKKAL KADIROV IN THE VIEW OF TODAY. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(7), 4-7.
27. Хожимаматов, А. (2023). ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА МИЛЛИЙ МУСИҚИЙ МЕРОСГА МУНОСАБАТНИ ЎЗГАРИБ БОРИШ ТЕНДЕНЦИЯСИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 249-253.
28. Azimjon, X., & Mohinur, M. (2023). О _ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATI QIROLICHASI-MUKARRAMA TURG _UNBOYEVA. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 480-484.
29. Ходжимаматов, А., & Нозимова, С. (2023). ДРУЖБА В ИСКУССТВЕ УЗБЕКИСТАНА С АЗЕРБАЙДЖАНОМ ВО ПРЕДСТАВЛЕНИИ УЗЕИРА ГАДЖИБЕКОВА. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(9), 180-185.
30. Хожимаматов, А., & Muhammadjonova, M. (2023). MUSIQA VA INSON PSIXOLOGIYASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 377-384.
31. Azimjon, X., & Mohinur, M. (2023). VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO _LI Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN: 2181-1784 www. oriens. uz SJIF 2023= 6.131/ASI Factor= 1.7 3 (3).
32. Хожимаматов, А., & Muhammadjonova, M. (2023). VIKTOR ALEKSANDROVICH USPENSKIYNING IJODIY YO _LI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(3), 587-591.
33. Хожимаматов, А., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.
34. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.
35. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG _USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.
36. Хожимаматов, А., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.